Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: CZ30537616

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MOLIYA VAZIRLIGI
BUYRUQ

“26” noyabr 2020-y № 109 Toshkent sh.

## O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo’yicha 2020-2021-yillarda mo’ljallangan “Yo’l xaritasi”ning ijrosini ta’minlash maqsadida,

**BUYURAMAN**

1. Quyidagilar:

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga oid harakatlar to’g’risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamenti 2-ilovaga muvofiq;

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to’g’risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamenti (S. Uralov) ushbu buyruq nusxasini Moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlik huzuridagi tashkilotlar va hududiy moliya idoralarga yetkazilishini ta’minlasin.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o’z zimmamda qoldiraman.

**Vazir** **T. Ishmetov**

| | |
|---|---|
| Vazirning birinchi o'rinbosari | O. Nasritdinxodjayev |
| Vazir o'rinbosari | O. Isakov |
| Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash departamenti | T. Narzikulov |
| Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti | B. Nurmatov |
| Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamenti | S. Uralov |
| Axborot xizmati | Sh. Xidoyatov |
| Soliq-bojxona siyosati va daromadlarni prognozlashtirish departamenti | Q. Usmonov |
| Yuridik departament | A. Turmuxamedov |

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligining
2020 yil “___” ________dagi
_____-son buyrug’iga
1-ILOVA

# O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish SIYOSATI

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (bundan buyon matnda - Siyosat deb yuritiladi) xodimlar orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida moliya tizimi organlarining yuqori axloqiy meʼyorlarga sodiqligini, shuningdek, moliya tizimi organlarining xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo’l qo’ymaslikni aks ettiradi.

2. Siyosat ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari - Foydalanish bo’yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va yetakchi xalqaro amaliyot asosida O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining (keyingi o’rinlarda - Vazirlik deb yuritiladi) hududiy va tarkibiy tuzilmalari ushbu siyosatni faoliyatining ahamiyatini hisobga olgan holda qabul qilishlari, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini, mavjud bo’lgan korrupsiya xavfi, tajribasi va mavjud manbalari asosida ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari lozim.

4. Vazirlikning markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalari (keyingi o’rinlarda - moliya tizimi organlari) korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

moliya tizimi organlarida korrupsiyani tubdan yo’qotishga erishish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish;

moliya tizimi organlari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyani oldini olish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o’z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini taʼminlash.

5. Siyosat Vazirlikning ichki hujjati sifatida yuqorida ko’rsatilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun moliya tizimi organlari faoliyatida korrupsiya bilan bog’liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

6. Mazkur Siyosatning talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qatʹi nazar Vazirlik bilan mehnat munosabatlarida bo’lgan barcha xodimlarga, shu jumladan, hududiy moliya tizimi organlari xodimlariga ham tadbiq etiladi.

7. Moliya tizimi organlariga ishga qabul qilinayotgan har qanday shaxs ushbu Siyosat bilan imzo qo’ygan holda tanishishga va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

8. Ushbu Siyosat maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo’llaniladi:

**aloqador shaxslar** - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo’lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

**ish jarayonidagi mehmondo’stlik belgilari** - moliya tizimi organlari xodimlari manfaatlarida faoliyat davomida hamkorlik o’rnatish va (yoki) qo’llab-quvvatlashga aloqador xarajatlar, shu jumladan, ishbilarmonlik bilan bog’liq kechki ovqat, transport va yashash xarajatlarini qoplash bilan bog’liq xarajatlar va h.k;

**korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilganligi to’g’risida vijdonan xabar berish** - moliya tizimi organlari xodimi tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (sodir etishga suiqasd qilinganligi) to’g’risida ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali asosliligiga ishonch hosil qilgan holda yo’llagan murojaat;

**kontragent (shartnomaviy sherik)** - moliya tizimi organlari bilan shartnomaviy munosabatlarga (mexnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiya** - shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy harakatlar** - xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko’zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani yaʹni pul, qimmatbaho qog’ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vaʹda qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to’lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o’z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** - korrupsiya belgilariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** - qo’llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini taʹminlash bo’yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** - moliya tizimi organlari xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan moliya tizimi organlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko’zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

**manfaatlar to’qnashuvi -** moliya tizimi organlari xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʹsir

ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan moliya tizimi organlari manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar** - belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlarni sodir etish uchun g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi -** moliya tizimi organlari xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin-qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

**xodim -** moliya tizimi organlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

## 2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

9. Moliya tizimi organlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini quyidagi tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi:

**qonuniylik** - moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jahonda tan olingan amaliyotni hisobga olgan holda hamda Vazirlik tizimining belgilangan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

**korrupsiyaga toqatsizlik** - moliya tizimi organlari o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'ladi. Moliya tizimi organlarining xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish taqiqlanadi;

**ochiqlik va shaffoflik** - Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida moliya tizimi organlari xodimlari va kontragentlarini, keng jamoatchilikni xabardor qilish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora- tadbirlarning preventivligi, tizimliligi va o'zaro bog'liqligi -** moliya tizimi organlari korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko'maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq keladi hamda moliya tizimi organlarining barcha funksiyalari va yo'nalishlariga integratsiya qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilgan;

**korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi -** korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Vazirlik tizimi xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'i nazar Vazirlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

**texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish -** moliya tizimi organlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi;

**to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish** - Vazirlik tizimining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligini to'g'risida ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda belgilangan choralarni ko'rish uchun to'sqinliksiz idora rahbari va moliya vaziriga murojaat qilishi mumkin;

**fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik -** moliya tizimi organlari o'zlariga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda moliya tizimi organlari faoliyatini halollik, xolislik va mustaqillik asosida mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadilar;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish -** korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish natijalariga ko'ra moliya tizimi organlari Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralarini ko'radilar.

## 3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimning elementlari

10. Korrupsiyaga "mutlaqo toqatsizlik" tamoyiliga tayangan holda moliya tizimi organlarining barcha xodimlariga korrupsiya bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, ya'ni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya'ni pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tusdagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, va'da berish va pora berish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi qat'iyan taqiqlanadi.

11. Quyidagilar moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi:

*a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki hujjatlar mavjudligi, ya'ni moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:*

mazkur Siyosat;

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi organlari xodimlarining odob-axloq qoidalari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablarni tashkil etadi;

*b) "Yuqoridan quyiga munosabat" - Yuqori darajada rahbarlik namunasi:*

moliya tizimi organlarining rahbarlari, shuningdek, moliya tizimi organlarining tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari o'ziga buysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishlari kerak;

moliya vaziri, moliya vazirining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, moliya tizimi organlari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish samarali tizimni yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali yetakchilikni namoyish etadilar:

moliya tizimi organlari faoliyatining xavf-xatarga ega funksiyalari (yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etish, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi/yo'l xaritasini ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilish orqali ko'maklashish;

o'z mansab majburiyatlarini bajarish doirasida, moliya tizimi organlari xodimlarida korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik normalari va qabul qilingan ichki hujjatlarga rioya qilish va axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo'lish;

*d) korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash:*

moliya tizimi organlari funksiyalarining xususiyati, tashkiliy tuzilmasi, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro faoliyat olib borishiga hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog'liq holda o'z faoliyatiga xos bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlaydi va baholaydi;

korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash doirasida moliya tizimi organlari faoliyatining barcha sohalari korrupsiyaviy xavf-xatarga ko'proq uchraydigan funksiyalarni aniqlash maqsadida tahlil qilinadi, ularda mavjud bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilishning barcha shakllari va tartib-taomillari aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish uchun yetarliligi jihatidan tahlil qilinadi. Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining faol qo'llab-quvvatlashi va nazorati ostida moliya tizimi organlarining tegishli rahbarlari, korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslar ishtirok etadi;

moliya tizimi organlarining korrupsiyaviy harakatlarga "mutlaqo toqatsizlik"ni hisobga olgan holda moliya tizimi organlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir qilish darajasidan qat'i nazar ularni boshqarish zaruratini tan oladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari moliya vaziri, moliya vaziri o'rinbosarlari va moliya tizimi organlarining rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi shuningdek, aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar moliya tizimi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarida aks ettiriladi;

*e) korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar:*

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish maqsadida Moliya vazirligining markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashishni shakllantirish va nazorat qilish jarayoni uchun mas'ul bo'lgan alohida tarkibiy tuzilma - Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi tashkil etilgan;

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va muhim resurslarga ega bo'lib, bevosita moliya vaziriga bo'ysunadi va o'z faoliyatini vazir tomonidan tasdiqlangan Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun hududiy moliya tizimi organlari va

tizimdagi tashkilotlarda ruxsat etilgan lavozimlarga korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish funksiyasi yuklatilishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish funksiyalari hududiy moliya boshqarmalari va buysunuvdagi tashkilotlarda yuqori darajada korrupsiyaviy xavf-xatarga ega bo'lmagan, shuningdek, yetarli darajada mustaqil bo'lgan xodimiga yuklatiladi;

hududiy moliya tizimi organlari va buysunuvdagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchilari korrupsiyani bartaraf etish choralarini ko'radi, shu bilan birga, o'ziga yuklatilgan vazifalar doirasida Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi bilan hamkorlik qiladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti (bo'limlari) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalariga muvofiq belgilangan tartibda va hajmda xodimlar va aloqador shaxslarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va tizimli yig'ish, tahlil qilish va yangilab borish uchun javobgar bo'ladi;

Bundan tashqari, moliya tizimi organlarining odob-axloq komissiyalari xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamentidan (bo'limlari) kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va (manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda) uni hal qilish bo'yicha qaror qabul qiladi yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi yoxud yetarli emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek, moliya tizimi organlari tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi masalalarini ko'rib chiqadi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti (bo'limlari) va Odob-axloq komissiyalari (yoki shunga o'xshash komissiyalar) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom asosida ish yuritadi;

*f) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish choralari:*

moliya tizimi organlari o'z faoliyati va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarli yo'nalishlarda umumiy nazorat muhitini |va korrupsiyaga qarshi kurashishda nazorat hamda tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadilar.

moliya tizimi organlari korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf-xatar darajasiga mutanosibligi, moliya tizimi organlari xodimlari uchun qat'iyligi va aniqligi, fuqarolik jamiyati uchun shaffofligini ta'minlashga intiladilar;

amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari va tartib-taomillar moliya tizimi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi/rejasi/yo'l xaritasida aks ettiriladi hamda tegishli ichki hujjatlarda belgilanadi;

*g) axborotlashtirish, kommunikatsiya va maslahat berish:*

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va moliya tizimi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida jamiyatning xabardorligini oshirish maqsadida, mazkur Siyosat va moliya tizimi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari to'g'risidagi asosiy maʼlumotlar ularning Internet tarmog'idagi rasmiy veb saytlariga joylashtiriladi.

Bundan tashqari, moliya tizimi organlari korrupsiyaga qarshi kurashish amaldagi qonun hujjatlari normalari va korrupsiyaga qarshi kurashish joriy etilgan tamoyillar va talablar haqida moliya tizimi organlari xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarni xabardor qilish va tushuntirish bo'yicha quyidagilar orqali barcha oqilona xatti- harakatlarni amalga oshiradi:

moliya tizimi organlari xodimlarini yiliga kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha doimiy va tizimli o'qitish, shu jumladan, ishga yangi qabul qilinayotgan xodimlarni ushbu Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtirish bilan birgalikda ularni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarda o'qitish. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha taʼlim dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'qish/treninglar haqidagi maʼlumotlar Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti (bo'limlari)da qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanadi;

moliya tizimi organlari xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga murosasiz munosabatini shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardorligini oshirishga qaratilgan tematik audio va videoroliklar hamda boshqa axborot maʼlumotlaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi haqidagi gumonlar yoki faktlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va boshqalar (korrupsiya faktlari haqida xabar berilishi mumkin bo'lgan usullari to'g'risidagi batafsil maʼlumot mazkur Siyosatning 4-bobida nazarda tutilgan) haqida xabar berilishi mumkin bo'lgan aloqa kanallari bilan taʼminlash;

mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi/korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish chora- tadbirlarni va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqanda moliya tizimi organlari xodimlariga maslahatlar berish;

moliya tizimi organlari xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarni kiritish;

tasdiqlangan rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha masʼul shaxs tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xulq-atvor yuzasidan tashviqotlar o'tkazish;

kontragentlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus shartlarni kiritish to'g'risida xabardor qilish va h.k;

*h) monitoring, nazorat va hisobot:*

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish amalga oshirilgan chora-tadbirlarning yetarliligi, mutanosibligi va samaradorligini

baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi. O’tkazilgan monitoring natijalari bo’yicha moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko’riladi.

Moliya tizimi organlarida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

moliya tizimi organlari faoliyati va funksiyalaridagi o’zgarishlar, ularning tashkiliy-funksional tuzilmasidagi o’zgarishlar hamda boshqa ichki va tashqi omillarning moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga taʼsirini, mazkur tizimga o’zgartirish kiritish zaruriyatini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini taʼminlash;

tasdiqlangan rejaga muvofiq samarasiz nazorat va tartib- taomillarni aniqlash uchun ularni to’g’rilash va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchliligi va samaradorligini taʼminlash maqsadida tanlov asosida vazirlik tizimidagi funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;

ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o’tkazish jarayonida moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha talablarga rioya qilinishini nazorat qilish;

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi/korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi va boshqa tarkibiy tuzilmalarga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning o’z vaqtida va tegishli tartibda amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish va h.k.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo’yicha chora-tadbirlar natijalari moliya vaziri, Vazirlik hayʼati, tegishli hududiy boshqarmalar va vazirlik tizimidagi muassasalar rahbarlarining choraklik hisobotlarida o’z aksini topadi.

*l) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:*

mazkur Siyosatga amal qilish va Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga rioya qilish har bir xodim uchun o’z xizmat majburiyatlarini bajarilishi doirasida majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarning buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar. Bundan tashqari, bevosita rahbarlar o’z buysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid belgilangan talablar va tamoyillarni buzgan moliya tizimi organlari xodimlari O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, maʼmuriy yoki jinoiy javobgarlikka tortililadilar;

xodimlar ularni korrupsiya bilan bog’liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to’g’risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o’ziga maʼlum bo’lgan har qanday faktlar haqida o’z rahbarlariga va Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limiga xabar berishlari shart;

korrupsiyaga mutlaqo toqatsizlik tamoyilini hisobga olgan holda, Vazirlik tizimida moliya tizimi organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog’liq har qanday asosli shubha bo’yicha xizmat tekshiruvlari O’zbekiston Respublikasi

qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini va (yoki) mazkur siyosat va moliya tizimi organlarining boshqa ichki hujjatlarida belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan moliya tizimi organlari xodimlari, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda moliya tizimi organlarining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan doirada va asoslarda javobgarlikka tortiladilar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda moliya tizimi organlari ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qiladilar va doimiy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradilar;

moliya tizimi organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va tekshirish uchun boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladilar.

## 4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari

### § 1. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

12. Moliya tizimi organlari xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) moliya tizimi organlari manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o'zlarining xizmat mavqeidan va (yoki) moliya tizimi organlarining mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Moliya tizimi organlari xodimlarining o'zlarining xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga, jumladan, xolis qaror qabul qilishga hamda moliya tizimi organlarining huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki va (yoki) nufuziga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi.

13. Vazirlik tizimining xodimlari ishga qabul qilinishida, boshqa lavozimga o'tkazilishida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligi haqidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar/holatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburdirlar. Moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

### § 2. Sovg'alar va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari

14. Moliya tizimi organlari xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish jarayonida mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalarini, naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

15. Moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijda olingan har qanday sovg'alar summasidan qat'i nazar moliya tizimi organlarining mulkiga o'tkaziladi.

16. Moliya tizimi organlari xodimlariga ularning shaxsi bilan bog'liq bayramlar (tug'ilgan kun, bolaning tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni)da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan sovg'alar xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

17. Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

sovg'alar moliya tizimi organlarining kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;

sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soli qlar va yig'imlarni hisobga olgan holda) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) baravaridan oshmasligi;

moliya tizimi organining bitta xodimi boshqa xodimga sovg'a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan oshmasligi kerak.

18. Shubhalar paydo bo'lmasligi uchun boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, sheriklar va kontragentlar, ushbu Siyosatning 15 va 16-bandlarida ko'rsatilmagan boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday bayram (tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va h.k.ni inobatga olgan holda, biroq bu bilan cheklanmasdan) bilan bog'liq holda olinadigan, ushbu Siyosatning 14-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va boshqa moddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

19. Moliya vazirligi nomidan xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa ishbilarmonlik (xizmatga oid) yig'ilishlarda sovg'alar berish moliya vaziri yoki uning o'rinbosarlarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

20. Sovg'ani qabul qilishning qonuniyligi to'g'risida shubha tug'ilgan har qanday hollarda moliya organi xodimi Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

## § 3. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish, moddiy rag'batlantirish

21. Moliya tizimi organlari xodimlarini tanlash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan mukofot pullarini to'lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo'lib, ushbu Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga muvofiq keladi.

22. Moliya tizimi organlari ularning rahbarlari, shuningdek, department, boshqarma va bo'lim boshliqlarini mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan, ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ushbu ko'rsatkichlar xolis, oshkora hamda moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan ko'rib chiqilish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi lozim.

## § 4. Tekshirishlarni o'tkazish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini o'rganish

23. Turli xil tekshirishlarni o'tkazish hamda davlat organlari va tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda - "Tekshirish obyektlari"deb yuritiladi) faoliyatini o'rganishda moliya tizimi organlari xodimlari:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

obyektni tekshirish bir xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;

sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirish obyekti vakillarining savodsizligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo'rqitmasligi;

tekshirilayotgan obyektning xodimlariga tahdid qilmasligi;

tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasliklari va hujjatlarni so'ramasliklari.

moliya tizimi organlari xodimlari tekshirish davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishlari;

agar tekshirish obyekti vakillari moliya tizimi organlari xodimlariga aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora va (yoki) biron-bir moddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa, tekshirish guruhi rahbarini darhol xabardor qilishlari;

tekshirish obyekti vakillariga moliya tizimi organlari xodimlarining axloqiy xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishlari shart.

24. Xizmat majburiyatiga davlat organlari va tashkilotlarini tekshirish kiradigan moliya tizimi organlarining tarkibiy tuzilmalarida o'tkazilgan tekshirish natijalari bo'yicha moliya tizimi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan nizolashish uchun apellatsiya instantsiyalari tashkil etiladi.

## 5-§. Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

25. Moliya tizimi organlari ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga zid bo'lgan har qanday to'lovlar va (yoki) shu kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun mahsulot yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni va boshqa uchinchi tomonlarni jalb qilmaydilar.

26. Moliya tizimi organlari kontragentlar bilan munosabatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishida qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladilar. Moliya tizimi organlari tanlashning xolis mezonlaridan foydalanishga asoslangan, mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olishning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayonini hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va sotib olinadigan mahsulotning Vazirlik tizimining ichki hujjatlari bilan tartibga solinadigan bahosini aniqlashning shaffof tartibini ta'minlaydilar.

27. Moliya tizimi organlari kontragent bilan o'zaro hamkorligida:

ehtimoli yuqori bo'lgan kontragentning ishonchliligini, shu jumladan o'tmishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganligi, moliya tizimi organlarida davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik normalariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari doirasida Vazirlik tizimi xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshiradilar;

ehtimoli yuqori bo'lgan kontragentni (tanlov, tender g'olibini va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid kontragentini) o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyillari va talablari haqida ular bilan tuziladigan shartnomalar matniga korrupsiyaga qarshi maxsus shartlarni qo'shgan holda xabardor qiladilar.

### § 6. Xayriya va homiylik faoliyati

28. Moliya tizimi organlari qonunda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishlari mumkin. Bunday yordamni olgan paytda moliya tizimi organlari manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni qonunda va (yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishini taʼminlash, shuningdek Internet tarmog'idagi o'zining rasmiy veb-saytlarida imkon qadar barcha ma'lumotlarni joylashtirishlari lozim.

### § 7. Moliya tizimi organlari faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

29. Moliya tizimi organlari xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun moliya tizimi organlari xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtirilishi mumkin, ularning yozuvlari moliya tizimi organlarining masʼul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishi mumkin.

30. Moliya tizimi organlarining rasmiy veb-saytlariga korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish, komissiya yig'ilishlari va boshqalar).

### § 8. Ichki hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

31. Ichki hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazishda hujjatlarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishini oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida xam ekspertiza o'tkaziladi.

### § 9. Moliya tizimi organlari xodimlariga maslahat berish

32. Moliya tizimi organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari talablari, ushbu Siyosat qoidalari yoki moliya tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan har qanday savollar bo'lsa, ular o'zlarining tarkibiy bo'linmasi/moliya tizimi organi va (yoki) Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga hamda Vazirlikning ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

## 5-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

33. Moliya tizimi organlari xodimlari va boshqa shaxslar, agar ularda Vazirlik tizimi xodimlari xatti-harakatlarining qonuniyligi va (yoki) odob-axloqqa muvofiqligi to'g'risida shubha tug'ilsa, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etilishiga gumon yoki sodir etilganligi faktlari bo'lsa, ular bu haqda vazirlikning foydalanish mumkin bo'lgan aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.

34. Moliya tizimi organlari o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to'g'risida ishonchli maʼlumot bergan shaxsning maxfiyligini taʼminlaydilar (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

35. Moliya tizimi organlari o'z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladilar va qasos olishga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimni pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish, vazirlik tizimining boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoki ular tomonidan ushbu Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarni taʼqib qilinishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydilar.

36. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali berish mumkin:

moliya tizimi organlari tomonidan o'rnatilgan ishonch va boshqa telefon raqamlar;
telegram tarmog'idagi maxsus bot (@murojaat_mf_bot);
moliya tizimi organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan shakllar (Xolis fuqaro);
moliya tizimi organlarining elektron pochta manzillari;
to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlariga.

37. Vazirlik tizimining aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va moliya tizimi organlarining ichki hujjatlariga muvofiq Vazirlik tizimining mas'ul bo'linmasi yoki xodimi tomonidan xolis tarzda va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

38. Anonim ravishda yuborilgan xabarlar ham ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. O'z nomini oshkor qilinmasligini istagan ariza beruvchi bunday holatda quyidagilarni tan oladi:

moliya tizimi organlari xabarga javob berish uchun murojaat etuvchi shaxs bilan bog'lana olmasligi;

moliya tizimi organlari zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishning imkoniyati yo'qligi sababli xabarni to'liq va har tomonlama tekshirishni amalga oshira olmasligi.

39. Moliya tizimi organlari tomonidan kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaat etuvchi shaxs bilan quyidagi holatlarda bog'lanilmaydi:

to'liq va keng qamrovli tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarning yo'qligi;

moliya tizimi organlari xodimining qasddan yolg'on ma'lumotni taqdim etishi ushbu Siyosatni buzilishi va axloqsiz xulq-atvorning namunasi sifatida qaralsa, bunday shaxs esa O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va vazirlikning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

40. Vazirlik tizimida korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan moliya tizimi organlarining xodimlari, agar bu ma'lumotlar tasdiqlangan bo'lsa, ichki hujjatlarga muvofiq rag'batlantirilishi mumkin.

41. Barcha aloqa kanallarining ishlashi va olingan xabarlarni qayta ishlash/ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi batafsil ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamentida va moliya tizimi organlarining boshqa shunga o'xshash ichki hujjatlarida aks etgan.

## 6-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishlar kiritish tartibi

42. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi kerak:

korrupsiyaga qarshi kurashish amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda;

korrupsiyaga qarshi kurashish samarasiz nazorat va tartib-taomillar aniqlanganda va moliya tizimi organlari faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tug'ilganda;

vazirlik tizimining tashkiliy tuzilmasi va (yoki) moliya tizimi organlari tomonidan o'z vazifalarini bajarishi xususiyatlari va boshqalar o'zgarganda.

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligining
2020 yil “___” ________dagi
_____-son buyrug’iga
2-ILOVA

**O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga oid harakatlar to’g’risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash**
**REGLAMENTI**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to’qnashuvini aniqlash va tegishli ta'sir choralarini ko’rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari ishlashining asosiy tamoyillarini, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro’yxatdan o’tkazish va kelib tushgan xabarlarga munosabat bildirish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

**murojaatchi -** korrupsiyaga oid harakatlar to’g’risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali moliya tizimi organlariga murojaat qilayotgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, jumladan, moliya tizimi organlari xodimlari;

**Call-center -** Moliya vazirligining “71 203-00-50” ishonch telefoniga kelib tushayotgan murojaatlarni markazlashtirilgan holda qabul qilish, to’plash, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, ularni to’liq, o’z vaqtida va sifatli ko’rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

**manfaatlar to’qnashuvi -** shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik moliya tizimi organlari xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko’rsatayotgan yoxud ta'sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan moliya tizimi organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat;

**korrupsiya -** shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid harakatlar -** xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko’zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya'ni pul, qimmatbaho qog’ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va'da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to’lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o’z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** - korrupsiya alomatlariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy xavf-xatar -** moliya tizimi organlari xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan moliya tizimi organlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi -** moliya tizimi organlari xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

**xodim** - moliya tizimi organlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**relevant xabar** - korrupsiyaga oid harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar.

4. Moliya vazirligi korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

**fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish** - Moliya vazirligi jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tan oladi hamda himoya qiladi;

**konfedensiallik va xavfsizlik -** aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan moliya tizimi organlarining barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqli emas. Bunda, agar murojaatchi o'z xabarining yuborganligi faktini boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, moliya tizimi organlari uning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'lmaydi;

**qonuniylik -** Moliya vazirligining aloqa kanallariga kelib tushayotgan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'i ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi;

**kelib tushgan barcha xabarlarni o'rganish -** Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardan tashqari barcha olingan xabarlarni to'liq (imkoni boricha), har tomonlama, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga kafolat beradi;

**murojaatchining ta'qib qilinmasligi -** aloqa kanallari orqali ehtimoli bo'lgan huquqbuzarliklar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan moliya tizimi organlari va muassasalarining xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilishi mumkin emas;

**murojaatchi bilan majburiy qayta aloqa** - agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari Moliya vazirligining vakolat berilgan xodimi tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

**ta'sir choralarini qo'llashning majburiyligi -** korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda Moliya vazirligi aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

## 2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Xabar quyidagi aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin:

"(71) 203-00-50" ishonch telefon raqami orqali Moliya vazirligining "Call-center";

telegram-boti (@murojaat_mf_bot);

Moliya vazirligiga shaxsan murojaat qilish;

Moliya vazirligining rasmiy veb-sayti ***https ://www.mf.uz*** da joylashtirilgan shakl (Xolis fuqaro) yoki ***info@mf.uz*** elektron pochtasi;

moliya tizimi organlari xodimlari va ular devonxonasi telefon raqami;

rahbar yoki bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar (faqat moliya tizimi organlari xodimlari uchun);

mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

6. Kelib tushgan barcha xabarlarni o'rganish mazkur Reglamentda nazarda tutilgan hollardan tashqari qabul qilinishi, ro'yxatdan o'tkazilishi va ko'rib chiqilishi lozim.

7. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida xabar kelib tushganda aloqa kanallarida xabarlarni qabul qilayotgan Moliya vazirligining vakolatli xodimi:

moliya tizimi organlari kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lana olmasliklari haqida maʼlum qilishi;

moliya tizimi organlari qo'shimcha zarur maʼlumot olish imkoniyati mavjud emasligi sababli xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchi o'z arizasidan voz kechganida - mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

8. Moliya tizimi organlarining alohida ishonch tarmoq/telefonlari orqali kelib tushgan Moliya vazirligi tizimidagi korrupsiyaga oid xabar qabul qilinganda, bunday xabarni qabul qilgan xodim uni bir kunlik muddatda Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga ko'rib chiqish uchun taqdim etishi lozim. Bunday xabar haqidagi axborot Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining xodimi tomonidan ilovaga muvofiq shakldа Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrida bir soat ichida ro'yxatga olinadi.

## 3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish

9. Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilayotgan xodim murojaatchidan quyidagi maʼlumotlarni imkoni boricha aniqlashtirishi lozim:

moliya organi hamda uning tarkibiy tuzilmasi haqida;

huquqbuzarlik sodir etilgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik davr va uning muntazamligi (takrorlanuvchi, bir martalik);

huquqbuzarlikning qisqacha tavsifi (jumladan, maʼlumotlar, aniq muhim faktlar va holatlar, ahamiyatga molik o'xshashliklar, ehtimoli bo'lgan sabablar);

gumonlanuvchi va (yoki) daxldor bo'lgan shaxslarning lavozimi va F.I.O;

huquqbuzarlik haqida bilishi va uni tasdiqlashi va (yoki) xabar qilinayotgan axborotni to'ldirishi mumkin bo'lgan moliya tizimi organlari xodimlarining lavozimi va F.I.O.;

murojaatchining F.I.O. va aloqa maʼlumotlari (o'zi istaganda qayta aloqaga chiqish uchun).

## 4-bob. "Call-center" orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish

10. "Call-center"ning "(71) 203-00-50" raqami orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

11. Agar "Call-center" orqali murojaat qilgan shaxs o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materillarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega

bo’lsa, unda operator ularni taqdim etish bo’yicha foydalaniladigan aloqa kanallari (“@murojaat_mf_bot” telegram-boti yoki info@mf.uz elektron pochta)ni ko’rsatadi va taqdim etilayotgan axborotning konfidensialligini bildiradi.

12. Agar xabar relevant bo’lsa, operator “mf.ijro.uz” tizimida murojaatning tegishli toifasini ko’rsatadi va kelib tushgan murojaatni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko’rib chiqish uchun ijrochi sifatida Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limini tanlaydi.

13. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limining xodimi “mf.ijro.uz” tizimida vazifa olganidan keyin bir soat ichida xabarni Reyestrda ro’yxatga olishi kerak.

## 5-bob. Telegram-bot orqali olingan xabarlarni qabul qilish va ro’yxatga olish

14. Xabar qaysi moliya organiga tegishli bo’lishidan qatʼi nazar, “@murojaat_mf_bot” Telegram-boti korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun umumiy aloqa kanali bo’lib hisoblanadi.

15. Moliya vazirligining Telegram-boti orqali kelib tushayotgan xabarlarni qabul qilish uchun Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limidan masʼul xodim tayinlanadi. Masʼul xodim kelib tushayotgan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00ga qadar qabul qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida masʼul xodim tomonidan ro’yxatga olinishi uchun saqlanadi.

16. Agar murojaatchi o’z xabarlarini tasdiqdovchi hujjatlar (audio va videoyozuvlar, fotosuratlar va boshqalar)ga ega bo’lsa, ularni Telegramdagi xabariga qo’shib qo’yishi mumkin.

17. “@murojaat_mf_bot” Telegram-botiga moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid xatti-harakatlar to’g’risidagi xabar kelib tushganda Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limining masʼul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo’li bilan yoki telefonda bir soat ichida zarur axborotni aniqlashtiradi va xabarni Reyestrda ro’yxatga oladi.

## 6-bob. Shaxsiy (og’zaki) tartibda olingan xabarlarni qabul qilish va ro’yxatga olish

18. Murojaatchilarning korrupsiyaga oid harakatlar haqida maʼlumotdan iborat bo’lgan xabarlari moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan shaxsan (og’zaki) qabul qilinishi mumkin.

19. Relevant xabar kelib tushganda xabarlarni qabul qilayotgan xodim uni qabul qilishi va bir soat ichida xizmat xatini tayyorlashi hamda unda quyidagilarni ko’rsatishi lozim:

murojaatchining F.I.O.;

elektron pochta va qayta aloqa uchun telefon;

xabar matni;

zaruratga ko’ra ilova qilinadigan qo’shimcha materiallar.

20. Xizmat xati elektron pochta orqali Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limiga yuborilishi lozim. Ko'rsatilgan aloqaga chiqishga oid maʼlumotlar bo’yicha murojaatchi bilan takroran muloqot qilish choralarini ko’rishi kerak.

21. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limining xodimi xabarni qabul qilib olgan xodimdan xabarni olganidan keyin bir soat ichida uni Reyestrda ro’yxatga olishi lozim.

## 7-bob. Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan shakl va elektron pochta orqali olingan murojaatlarni qabul qilish va ro’yxatga olish

22. Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan shakl va info@mf.uz elektron pochtasi orqali kelib tushayotgan relevant xabarlarni qabul qilish Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

23. Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan shakl va info@mf.uz elektron pochtasi orqali relevant xabar kelib tushganda Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamentining masʼul xodimi bir soat ichida uni Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga o'tkazib yuborishi kerak.

24. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining xodimi Moliya vazirligining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamentidan xabarni olganidan keyin uni Reyestrda ro'yxatga olishi lozim.

## 8-bob. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali olingan murojaatlarni qabul qilish va ro'yxatga olish

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Virtual qabulxonasi orqali relevant xabar kelib tushganda Moliya vazirligining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamentining masʼul xodimi olingan maʼlumotlarni "mf.ijro.uz" tizimiga ro'yxatga olish uchun kiritadi.

26.Agar xabar relevant bo'lsa, operator 30 daqiqa ichida "mf.ijro.uz" tizimida murojaatning tegishli toifasini ko'rsatadi va ijrochi sifatida Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limini belgilaydi.

27. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining xodimi "mf.ijro.uz" tizimida topshiriq olganidan so'ng xabarni mazkur Reglamentning ilovasiga muvofiq shakldagi Korrupsiyaga qarshi harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrida ro'yxatga olishi lozim.

## 9-bob. Moliya vazirligi xodimlari va devonxonaning telefoni orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish

28. Murojaatchilarning korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlari Moliya vazirligi xodimlari tomonidan ish telefoni, shuningdek, devonxonaning telefoni orqali ham qabul qilinishi mumkin.

29. Moliya vazirligi yoki uning tizimi xodimi yoki devonxonaga qo'ng'iroq qilinganda xodim murojaatchining xabarini qabul qilishi va undan quyidagi maʼlumotlarni olishi kerak:

murojaatchining F.I.O.;

qayta aloqa uchun elektron pochta yoki telefon;

xabar matnining o'zini belgilab olishi;

zaruratga ko'ra qo'shimcha ilova qilinadigan materiallar.

30. Moliya vazirligi xodimi xabarni qabul qilib olgan paytdan boshlab 30 daqiqa ichida mazkur Reglamentning 30-bandida sanab o'tilgan maʼlumotlarni ko'rsatib xizmat xatini tayyorlaydi va olingan maʼlumotni Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga o'tkazadi.

31. Agar xabarda zarur axborot to'liq bo'lmasa, Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining masʼul xodimi bir soat ichida bog'lanish uchun ko'rsatilgan maʼlumotlar bo'yicha murojaatchi bilan takroran muloqot qilish choralarini ko'rishi kerak.

32. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limining xodimi xabarni qabul qilib olgan xodimdan xabarni olganidan keyin bir soat ichida uni Reyestrda ro'yxatga olishi lozim.

## 10-bob. Xodimning rahbariga kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish

33. Moliya tizimi organlari xodimlari boshqa moliya tizimi organlari xodimlarining o’zlariga maʹlum bo’lgan korrupsiyaga oid harakatlari haqida o’zining bevosita rahbariga yoki Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limiga xabar berishlari mumkin.

34. O’ziga bo’ysunuvchi xodimdan relevant xabarni olgan Moliya vazirligi tarkibiy bo’linmasi rahbari xizmat xatini tayyorlashi va unda quyidagilarni ko’rsatishi shart:

xodimning F.I.O.;

moliya organi va uning tarkibiy bo’linmasi;

qayta aloqa uchun elektron pochta yoki telefon;

xabar matni;

zaruratga ko’ra qo’shimcha ilova qilinadigan materiallar.

35. Relevant xabarni qabul qilib olgan Moliya vazirligi tarkibiy bo’linmasi rahbari bir ish kuni ichida olingan maʹlumotni elektron pochta orqali Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limiga yuboradi.

36. Agar xabarda zarur axborot to’liq bo’lmasa, Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limining masʹul xodimi bir soat ichida ko’rsatilgan aloqaga chiqishga oid maʹlumotlar bo’yicha murojaatchi bilan takroran muloqot qilish choralarini ko’rishi kerak.

37. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limining xodimi xabarni qabul qilib olgan xodimdan xabarni olganidan keyin bir soat ichida uni Reyestrda ro’yxatga olishi lozim.

## ll-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni ko’rib chiqish

38. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limiga kelib tushgan barcha xabarlar ushbu bo’limning xodimlari tomonidan ko’rib chiqilishi kerak.

39. Xabar kelib tushganda Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi xodimi uning relevantliligini tahlil qiladi, yaʹni xabarda ko’rsatilgan maʹlumot korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to’qnashuviga tegishliligini tekshiradi.

40. Mazkur Reglamentning 40-bandida nazarda tutilgan xabarni tahlil qilish natijalaridan qat’i nazar, bu haqdagi axborot Reyestrga kiritiladi.

41. Agar Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi xodimi xabar relevant emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir soat ichida Moliya vazirligining masʹul bo’linmasiga o’tkazilishi lozim.

42. Agar xabarda korrupsiyaga oid harakatlar va (yoki) manfaatlar to’qnashuvi haqida maʹlumot bo’lmasa hamda xizmat tekshiruvi o’tkazish uchun yetarli asoslar bo’lsa, Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvi o’tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

43. Relevant xabarlarni mazmunan ko’rib chiqish Moliya vazirligiga kelib tushgan kundan eʹtiboran 30 kun ichida, qo’shimcha o’rganish va (yoki) tekshirish, qo’shimcha hujjatlarni so’rab olish talab etilganda esa, moliya vazirining roziligi bilan uzaytirilishi mumkin.

Relevant xabarlarni ko’rib chiqish natijalariga ko’ra o’rganish natijalari va qo’llanilgan taʹsir choralari ko’rsatilgan javob xati tayyorlanadi va murojaat qilgan shaxsga yuboriladi (ko’rsatilgan aloqa maʹlumotlari bo’yicha yozma yoki elektron shaklda).

44. Murojaatga javob Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi tomonidan tayyorlanadi.

45. Telegram-bot orqali kelib tushgan xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda Telegram-bot va (yoki) ko’rsatilgan aloqa maʹlumotlari orqali yuboriladi.

## 12-bob. Hisobot

46. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi doimiy asosda (har chorakda) ko’rib chiqish uchun moliya vaziriga, Moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha kengashi va Hayʼatiga taqdim etiladigan korrupsiya masalalarida kelib tushgan xabarlar haqidagi hisobotlarni, shu jumladan, axborot berish kanallari, xabarlar turi, tasdiqlangan faktlar soni, ko’rilgan choralar va h.k.ni shakllantiradi.

## 13-bob. Yakuniy qoidalar

47. Murojaatchilar va xodimlardan xabarlarni mazkur Reglamentga muvofiq qabul qiladigan moliya tizimi organlarining xodimlari mazkur Reglament talablariga rioya etilishi uchun shaxsan javobgar bo’ladilar.

48. Mazkur Reglamentni buzganlik uchun javobgarlik choralari O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va moliya organlarining ichki hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda qo’llaniladi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining korrupsiyaga oid harakatlar to’g’risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamentiga
ILOVA

**Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrining NAMUNAVIY SHAKLI**

| T/r | Xabar kelib tushgan sana | Xabar kelib tushgan kanal | Murojaatchining F.I.O | Bog’lanish uchun ma’lumotlar | Xabar tegishli bo’lgan moliya organi | Moliya organining tarkibiy bo’linmasi | Toifa * | Xabar mazmuni | Ko’rib chiqish natijasi ** | Murojaatchi bilan qayta aloqaga chiqish (sanasi va formati) | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | |

* 1 - korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, 2 – manfaatlar to’qnashuvi, 3- relevant emas

** Agar ko’rmasdan qoldirilgan bo’lsa “ko’rmasdan qoldirilgan” deb yozib qo’yish. Agar xizmat tekshiruvi tayinlangan bo’lsa, buyruq raqami va sanasini ko’rsatish kerak. Agar tegishli bo’linmaga yuborilgan bo’lsa, bo’linmani ko’rsatish kerak.

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligining
2020 yil “___” ________dagi
_____-son buyrug’iga
3-ILOVA

# O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida xizmat jarayonida manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlari to’g’risidagi NIZOM

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom moliya tizimi organlari faoliyatida manfaatlar to’qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimidagi barcha tashkilotlar xodimlariga ularning egallab turgan lavozimi va xizmat vakolatlaridan qatʼi nazar qo’llaniladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari;

**urug’-aymoqchilik -** xodimning umumiy ajdodga ega bo’lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo’lish shakldagi shaxsiy manfaatini namoyon etilishi;

**manfaatlar to’qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik moliya tizimi organlari xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir ko’rsatayotgan yoxud taʼsir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan moliya tizimi organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat;

**mahalliychilik -** shaxsni faqatgina qarindoshligi (qarindoshni hamma bilishi/mashhurligi va uning jamoatchilik tomonidan keng eʼtirof etilgan) va bunday shaxsning hokimiyat vakolatiga ega bo’lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqei sababli lavozimga qo’yiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - moliya tizimi organlari xodimi tomonidan o’z xizmat vazifalarini bajarish chog’ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo’lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir qilishi mumkin bo’lgan pul mablag’lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko’rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

**nepotizm (tanish-bilishchilik)** – o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga g'ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) taʼsir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, moliya tizimi organlari manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**homiylik -** yon bosish, qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklida moliya organi xodimini yuqoriroq lavozimdagi xodim tomonidan himoya qilinishi;

**potentsial manfaatlar to'qnashuvi** - xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) moliya tizimi organlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular moliya tizimi organlari manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va moliya tizimi organlarining xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga taʼsir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish -** xodimlar tomonidan potentsialli yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida eʼlon qilish tartib-taomili;

**haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi -** xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) moliya tizimi organlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) moliya tizimi organlari manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat;

**aloqador shaxslar -** xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

**manfaatlar to'qnashuvini hal qilish -** moliya tizimi organlari tomonidan xodimlarining xizmat majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligi holati va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) moliya tizimi organlarining manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

**favoritizm -** moliya organi xodimi bir shaxs yoki bir guruh, shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo'yish, shu bilan birga, moliya tizimi organlarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat taʼtillari berish yoki sanatoriyalar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko'rib chiqish navbatini, shuningdek, ish vaqti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.

4. Moliya tizimi organlari hamda ularning xodimlari manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy prinsiplarga rioya qilishlari shart:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

moliya tizimi organlari xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatdorligidan ustun qo'yishi;

moliya tizimi organlarining xodimlari tomonidan oshkoralik, vijdonlilik va xolislik asosida qarorlar qabul qilinishi;

xodimlar tomonidan potentsial yoki haqiqiy manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi axborotni oshkor qilishning majburiyligi;

manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ymaslik bo’yicha profilaktik choralarning ustuvorligi;

manfaatlar to’qnashuvi holatlarini ko’rib chiqish va manfaatlar to’qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi;

manfaatlar to’qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko’rib chiqish, baholash va hal qilishga xolis yondashuv;

ushbu Nizomda belgilangan tartibda moliya tizimi organlari xodimlari tomonidan taqdim etilgan manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi to’g’risidagi maʼlumotlarning maxfiyligini taʼminlashi;

agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o’ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida tegishli tartibda xabar bergan hamda moliya tizimi organlari manfaatlari foydasiga o’z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo’lsa, uni haqiqiy yoki potentsial manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo’shatilishiga yo’l qo’yilmasligi.

## 2-bob. Masʼul tarkibiy bo’linmalar xodimlarining majburiyatlari va vakolatlari

5. Moliya tizimi organlari xodimlari o’zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va (yoki) moliya tizimi organlarining manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to’qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o’zlarini saqlashlari shart.

6. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to’qnashuvining oldini olish uchun moliya tizimi organlarining xodimlari:

ushbu Nizomning talablariga rioya qilishi;

faqat moliya tizimi organlari manfaatlarini ko’zlashi;

o’z xizmat mavqeidan faqat moliya tizimi organlari manfaatlarida foydalanishi;

moliya tizimi organlarining manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo’lgan shaxsiy manfaatlar to’g’risida moliya tizimi organlarini xabardor qilishi;

nepotizm (qarindoshlik), favoritizm, mahalliychilik, homiylik va urug’-aymoqchilikning namoyon bo’lishiga qattiq chek qo’yishi;

potentsial yoki haqiqiy manfaatlar to’qnashuvi haqidagi maʼlumotlarni o’z vaqtida va to’liq oshkor qilishi;

o’zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to’g’risidagi maʼlumotlarning to’liq ro’yxatini, o’zining va ularning nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki haqidagi maʼlumotlarni halol, to’liq va vijdonan oshkor qilishi shart.

7. Manfaatlar to’qnashuvini oldini olish maqsadida moliya tizimi organlarining xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida xabar berishi kerak, agar:

xodimning bevosita buysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar bo’lsa;

xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini hisoblash va to’lash, mukofotlar, ustamalarga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa;

xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari tijorat tashkilotlarida ulushlarga yoki aksiyalarga ega bo'lsa (Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno);

xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari nodavlat notijorat tashkilotining boshqaruvida ma'lum bir lavozimni egallab turgan bo'lsa;

xodim o'zining yaqin qarindoshlari va (yoki) u bilan aloqador shaxslar ishlaydigan moliya tizimi organlari nazorati ostidagi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilishning alohida funksiyalarini bajarsa;

xodim moliya organlari tomonidan o'zining shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni harid qilish haqida qaror qabul qilishda ishtirok etsa.

8. Ushbu Nizomning 6-bandida keltirilgan holatlardan tashqari boshqa holatlar ham manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishi mumkin. Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligini aniqlash uchun har bir alohida vaziyat barcha holatlar hisobga olingan holda alohida ko'rib chiqiladi. Ushbu Nizomda nazarda tutilmagan yangi manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlangan taqdirda, mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

9. Moliya tizimi organlari xodimlariga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

10. Mazkur Nizomning 6-ilovasida ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash uchun xodim qaror chiqarishidan avval yoki xizmat vakolatlarini amalga oshirishdan oldin o'ziga quyidagi savollarni berishi lozim:

"Men vijdonan va xolisona qaror qabul qila olamanmi?",

"Agar ushbu qarorni moliya tizimi organlarining boshqa xodimi qabul qilsa, mening fikrimga o'xshash fikrga kelarmidi?".

Agar xodim ikkita savollardan biriga "yo'q" deb javob bersa, manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi xavfi mavjud bo'ladi.

11. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun moliya organlari ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq choralar ko'rishlari kerak.

## 3-bob. Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va ko'rib chiqish tartibi

12. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

moliya tizimi organlarida vakant bo'lgan bo'sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (har yillik deklaratsiya);

potentsial yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi fakti bo'yicha ma'lumotlarni oshkora qilish.

13. Moliya tizimi organlarining bo'sh ish joylariga nomzodlarning, xodimlarning ularni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti / bo'limiga quyidagi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi:

ma'lumotnoma-obyektivka va mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi (xodim tomonidan ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hujjatlarni avval taqdim etganligidan qat'i nazar) ma'lumotlar (yaqin qarindoshlar, aloqador shaxslar, ustav kapitalida xodim yoki uning yaqin qarindoshlarining ulushi bo'lgan yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlarida xodimning va (yoki) uning rahbarlik lavozimlarini egallab turgan yaqin qarindoshlarining ishtiroki);

ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki yo'qligi haqida mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza to'ldiriladi.

14. Manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limining mas'ul xodimi ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligi bo'yicha tekshiradi. Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganida Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/ bo'limining mas'ul xodimi ushbu xodimning bevosita rahbariga mazkur manfaatlar to'qnashuvi va uni hal qilish uchun chora ko'rish zarurligi haqida yozma shaklda xabar qiladi;

xodimning bevosita rahbari ushbu ma'lumotni olgan paytdan boshlab manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralarini ko'radi va bu haqda yozma shaklda xizmat xati ko'rinishida Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limiga xabar qiladi;

Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limining mas'ul xodimi xodimning bevosita rahbaridan ko'rilgan choralar bilan xizmat xatini olgan paytdan boshlab 5 ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi va maqbulligini ko'rib chiqish uchun aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni moliya organining Odob-axloq komissiyasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritadi. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha choralar ko'rish yuzasidan qaror moliya organining Odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

15. Moliya tizimi organining xodimi manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni rotatsiya/lavozimga tayinlanishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/yo'qligi haqida ariza berish va har yili mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda ariza topshirish yo'li bilan har yili oshkor qilishi lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni har yili oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

moliya tizimi organlarining barcha xodimlari hisobot davrida yuz bergan voqealar va o'zgarishlarni hisobga olgan holda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti / bo'limiga bir yilda bir marta xabar berishi shart;

Moliya vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti tomonidan har yili 15-yanvargacha moliya tizimi organlarining xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi haqida xabar berish zarurligi to'g'risida topshiriq beriladi;

moliya tizimi organlarining xodimlari har yili 15-fevralgacha manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni rotatsiya/lavozimga tayinlanishda va mazkur Nizomning 3-ilovasiga

muvofiq shaklda har yili ariza topshirishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/yo'qligi haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari va to'ldirilgan arizani Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limiga taqdim qilishlari lozim;

Moliya vazirligining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash departamenti xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi haqida xabar berish zarurligi to'g'risidagi topshiriqni barcha moliya tizimi organlariga yetkazadi;

moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi 10-martgacha manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqlash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki yo'qligi haqida olingan arizalarni tahlil qiladi;

bunday xodimlar haqidagi maʼlumot ularning bevosita rahbarlariga yetkaziladi hamda moliya tizimi organlarining Odob-axloq komissiyalariga yoki Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga yuboriladi (agarda, Odob-axloq komissiya aʼzolarida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda);

Odob-axloq komissiyasi xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo'lganda) xodim ishtirokida 20-martgacha manfaatlar to'qnashuvi holatini ko'rib chiqadi va manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflanadigan vaziyatlarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida qaror chiqaradi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi va ularni hal qilish bo'yicha mo'ljallanayotgan choralar haqidagi yakuniy qaror Odob-axloq komissiyasining bayonnomasiga kiritiladi va xodimga yetkaziladi. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tasdiqdangan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik xodimning bevosita rahbari zimmasida bo'ladi;

Moliya vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti 25-martgacha moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi tomonidan mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestriga kiritiladigan manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi elektron maʼlumotlarni jamlaydi va saqlaydi;

moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestrini to'ldiradi, Moliya vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti tomonidan ularni jamlash ishlari amalga oshiriladi;

har yili I chorakda Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi masʼul xodimi Moliya vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlar asosida manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish, aniqlash va hal qilish bo'yicha statistika tahlilini moliya vaziri va Moliya vazirligi Hayʼatiga ko'rib chiqish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hisobotga kiritadi.

16. Mavjud yoki potentsial manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi fakti bo'yicha maʼlumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

moliya tizimi organlarining har qanday xodimida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqanda, u bu haqda bevosita rahbariga haqiqiy yoki potentsial manfaatlar to'qnashuvi sifatida

tavsiflanadigan holatni batafsil bayon etib mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda xabar berishi lozim;

ko'rsatilgan ma'lumot xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqan yoki xodimga manfaatlar to'qnashuvi ma'lum bo'lgan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida yozma shaklda taqdim etilishi kerak;

xodimning bevosita rahbari xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganida xodimning manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqish ehtimoli haqidagi xabarnomasida tegishli ma'lumotni to'ldirib, uni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va qabul qilish lozim;

xabarnoma xodim tomonidan bir ish kuni ichida Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish uchun taqdim etiladi;

Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi xabarnomani olib, bir ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi va maqbulligi haqida qaror chiqarish uchun Odob-axloq komissiyasining eng yaqin vaqtdagi majlisi kun tartibiga kiritishi lozim. Odob-axloq komissiyasining qarori Odob-axloq komissiyasining majlisi bayonnomasiga kiritiladi va xodimga u tuzilgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida ma'lum qilinadi. Odob-axloq komissiyasining a'zosi, agar unda Komissiya majlisida manfaatlar to'qnashuvi ko'rib chiqilayotgan xodimga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi;

agar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan aniq vaziyat Odob-axloq komissiyasining a'zolariga aloqador bo'lsa, bunday ma'lumotlar olingan kundan boshlab bir ish kuni ichida Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limiga taqdim etilishi lozim;

manfaatlar to'qnashuvining hal etilishiga qarab moliya tizimi organlarining Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa qilinadi hamda hal qilish uchun moliya organlarining rahbariga ko'rib chiqishga taqdim etiladi;

moliya tizimi organlarining xodimlari tomonidan oshkor etilgan mavjud yoki potentsial manfaatlar to'qnashuvi hamda ularni hal etish bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi ma'lumot Odob-axloq komissiyasining majlisi bayonnomasi tuzilganidan so'ng uch ish kuni ichida Reyestrda aks ettiriladi.

## 4-bob. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari

17. Moliya tizimi organlari manfaatlarining buzilishini oldini olish uchun mavjud manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari imkon qadar tezroq amalga oshirilishi lozim.

18. Moliya vazirligida manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarishda quyidagi choralar belgilanishi kerak:

bevosita buysunadigan xodimni yaqin qarindoshi bo'lmagan boshqa shaxs buysunuviga o'tkazish;

manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan masalalarni muhokama qilishda va ular bo'yicha qaror chiqarish jarayonida qatnashishdan xodimning o'z ixtiyoriga ko'ra chetlashish/o'zini o'zi rad etishi yoki uni majburan (doimiy yoki vaqtincha) chetlashtirilishi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik uchun xodimning lavozim majburiyatlari doirasini qayta ko'rish;

xodim tomonidan uning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan va manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan moliya tizimi organlarining maʼlumotlari va hujjatlaridan foydalanishini cheklash;

yuqoriroq lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh va (yoki ) aloqador shaxsga nisbatan lavozimni ko'tarish, faoliyatini baholash, mukofot pullarini to'lash va ish haqiga ustamalarni hisoblash, o'qishga va treninglarga hamda har qanday masalalar bo'yicha xorijga yuborish, mehnat taʼtiliga chiqishga rozilik berish va ish haqini nazorat qilish haqida jamoaviy tarzda qaror qabul qilinishini taʼminlash;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'lik bo'lmagan mehnatga oid funksiyalarni bajarishini nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish va boshqa holatlar.

19. Istisno holatlarda, ushbu Nizomning 14-bandida sanab o'tilgan choralar manfaatlar to'qnashuvini to'liq tartibga solmagan taqdirda, quyidagi tartibga solish choralari ko'rilishi mumkin:

xodim tomonidan moliya tizimi organlarining manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

xodim tomonidan moliya tizimi organlarining manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechmaganda uni ishdan bo'shatish (mehnat shartnomasini bekor qilish)ga tavsiya berish.

20. Har bir vaziyatda, manfaatlar to'qnashuvi perdmetini belgilab beradigan faktdan kelib chiqib, xodim bilan moliya tizimi organlarining kelishuviga ko'ra uni hal qilishning boshqa choralari qo'llanilishi mumkin. Ko'riladigan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi va mazkur Nizomda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishni taʼminlashi lozim.

## 5-bob. Axborotning konfedensialligi

21. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda qatnashadigan xodimlar olingan maʼlumotlarning maxfiyligini taʼminlashi va ushbu maʼlumotlardan faqat ko'rib chiqish, hisobga olish va hal etish choralarini ko'rish hamda ushbu jarayonni nazorat qilish uchun masʼul bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishini taʼminlashi lozim.

22. Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan moliya tizimi organlari xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bilan moliya tizimi organlariga murojaat qilinganida uni ko'rib chiqish moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

## 6-bob. Reyestrni yuritish va saqlashga qo'yiladigan talablar

23. Moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobini mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda reyestrga kiritish yo'li bilan o'z vaqtida va to'liq yuritishlari shart.

24. Har bir moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limi tegishli moliya tizimi organlari xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobini o'z vaqtida va to'liq yuritilishiga javobgar hisoblanadi.

25. Moliya vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi maʼlumotlarni moliya tizimi organlari reyestrini har chorakda (yoki zaruratga ko'ra) yig'ish va umumlashtirish yo'li bilan to'plashi lozim.

26. Maʼlumot Reyestrga quyidagi hollarda kiritilishi kerak:

**moliya tizimi organlariga ishga qabul qilishda** - Odob-axloq komissiyasining bayonnomasi tuzilgan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, agar nomzod manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/yo'qligi haqida arizada manfaatlar to'qnashuvining mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa va Odob-axloq komissiyasi manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

**lavozimga tayinlash/rotatsiya vaqtida manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilishda -** moliya tizimi organining rahbari tomonidan buyruq imzolangan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan;

**manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishiga ko'ra -** Odob-axloq komissiyasining bayonnomasi tuzilgan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, agar Odob-axloq komissiyasi manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

**moliya organlari yoki muassasalarining xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi maʼlumotni har yili deklaratsiya qilinganda -** mazkur Nizomning 12-bandiga muvofiq

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi tomonidan Reyestrga maʼlumot kiritish haqida bevosita ko'rsatma bo'lganida korrupsiyaviy tavsifdagi maʼlumotni xabar qilish uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi haqida aloqa kanallaridan olingan maʼlumot tasdiqlanganda;

ichki xizmat tekshiruvlari o'tkazilganda va Moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va talablariga rioya qilinishi monitoring qilinganda hamda Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'limi tomonidan Reyestrga maʼlumot kiritish haqida bevosita ko'rsatma bo'lganida.

Xodimlarning manfaatlar to'qnashuviga tegishli bo'lgan ariza va xabarnomalari hamda boshqa maʼlumotlar moliya tizimi organlarining Inson resurslarini rivojlantirish va xodimlarni ma'murlash departamenti/bo'limida saqlanishi shart.

## 7-bob. Javobgarlik

27. Barcha xodimlar egallab turgan lavozimidan qatʼi nazar, ushbu Nizomning talablariga rioya qilish, shuningdek, o'z manfaatlarining to'qnashuvi to'g'risida moliya tizimi organlariga o'z vaqtida va to'liq maʼlumot berish bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

28. Manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqqan xodimlar tegishli maʼlumotni tahlil qilish va boshqa tekshirishlarni o'tkazishda moliya tizimi organlarining masʼul shaxslariga ko'maklashishlari lozim.

29. Xodimning manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi maʼlumotlarni yashirish va (yoki) qasddan o'z vaqtida yoki to'liq oshkor etmasligi, moliya tizimi organlari manfaatlarining buzilishiga olib kelganligi yoki olib kelmaganligidan qatʼi nazar, qabul qilingan axloqiy normalar, mehnat intizomi hamda moliya tizimi organlarining ichki talablari buzilishi sifatida qaraladi.

30. Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish, ko'rib chiqish hamda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ma'sul xodimlar, shu jumladan ushbu ma'lumotlardan foydalanish vakolatiga ega xodimlar tomonidan axborotning konfedensialligini har qanday ko'rinishda buzilishi xodimni intizomiy javobgarlikka toritish uchun asos bo'ladi.

31. Xodimda u ongli ravishda mazkur Nizomda belgilangan tartibda mas'ul mansabdor shaxslarga xabar bermagan, xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligiga olib kelgan va (yoki) moliya tizimi organlari manfaatlarining buzilishiga olib kelgan manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda, bunday xodim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va moliya tizimi organlarining ichki hujjatlarida belgilangan asoslarda va tartibda intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Moliya
vazirligi tizimida manfaatlar
to’qnashuvini boshqarish
to’g’risidagi nizomga
1-ilova

# MA’LUMOTNOMA

## Botir Bahodirovich Eshmatov

**3x4 sm, hajmda, oxirgi 3 oy davomida olingan rangli fotosurat, elektron ko’rinishda** (rasmiy kiyimda, oq fonda)

**2012 yil 20 fevraldan**
O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yuridik departamenti bosh yuriskonsulti

**Tug’ilgan yili:**
20.08.1985

**Tug’ilgan joyi:**
Sirdaryo viloyati
Guliston shahri

**Millati:**
O’zbek

**Partiyaviyligi:**
partiyasiz

**Ma’lumoti:**
oliy

**Tamomlagan:**
2006-y. Samarqand Dasvlat universitetini (bakalavr)

**Ma’lumoti bo’yicha mutaxassisligi:** huquqshunos

**Ilmiy darajasi:**
yo'q

**Ilmiy unvoni:**
yo’q

**Qaysi chet tillarini biladi (to’liq ko’rsatilishi lozim):** rus tilini

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):** yo’q

**Xalq deputatlari respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a’zosimi (to’liq ko’rsatilishi lozim):** yo’q

## MEHNAT FAOLIYATI

| | | |
|---|---|---|
| 2002-2006 y. | - | Samarqand Davlat universiteti yuridik fakultetining talabasi |
| 2006-2008 y. | - | Sirdaryo viloyati Guliston tuman sud ichrochilari bo’linmasining sud ijrochisi |
| 2008-2010 y. | - | Sirdaryo viloyati Boyovut tuman sud ichrochilari bo’limining katta sud ijrochisi |
| 2010-2012 y. | - | Sud departamentining Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi sud qarorlarini ijro etish bo’limning inspektori |
| 2012 y.-h.q. | - | O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yuridik departamenti bosh yuriskonsulti |

# Botir Bahodirovich Eshmatovning yaqin qarindoshlari haqida

# MA'LUMOT

| Qarindosh-ligi | Familyasi, ismi, otasining ismi | Tug'ilgan yili va joyi | Ish joyi va lavozimi | Turar joyi |
|---|---|---|---|---|
| **Otasi** | Eshmatov Bahodir Temirovich | 1935-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani | Pensiyada (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dosenti) | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Binokor ko'chasi, 5-uy |
| **Onasi** | Abdushukurova (Xamdamova) Rahima | 1936-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani | 2000-yil vafot etgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dosenti) | |
| **Opasi** | Soatova (Eshmatova) Gulchyehra Bahodirovna | 1959-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani | Qibray tumanidagi kasb-hunar kolleji o'qituvchisi | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Binokor ko'chasi, 25-uy |
| **Ukasi** | Eshmatov Toxir Bahodirovich | 1972-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani | O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yetakchi iqtisodchisi | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Binokor ko'chasi, 5-uy |
| **Turmush o'rtog'i** | Eshmatova (Pirmatova) Nozima Sharofxodjayevna | 1968-yil, Toshkent shahri | Toshkent shahar 1-markaziy poliklinikasi fizioterapiya bo'limi shifokori | Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 20-uy, 21-xonadon |
| **Qizi** | Eshmatova Ziyoda Botirovna | 1991-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani | O'zbekiston Milliy universiteti talabasi | Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 20-uy, 21-xonadon |
| **Qaynotasi** | Pirmatov Sharofxodja Nigmatovich | 1939-yil, Toshkent shahri | 2000-yil vafot etgan (O'zbekiston Milliy universiteti dosenti) | |
| **Qaynonasi** | Pirmatova (Yunusbekova) Mashkura Sobirovna | 1945-yil, Toshkent shahri | Pensiyada (Toshkent davlat texnika universiteti dosenti) | Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ipakchi ko'chasi, 33-uy |

**MA'LUMOT**
**tijorat tashkilotlarining ustav fondida qatnashadigan**
**______________________________________(to'liq ismi)**
**bilan bog'liq tomonlar to'g'risida**

| Tijorat tashkilotining nomi | F.I.O | Egalik ulushi |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

**MA'LUMOT**
**ustav fondida o'z ulushiga ega bo'lgan ________________________(to'liq ismi)**
**va/yoki uning yaqin qarindoshlari va tegishli shaxslar**

| Yuridik shaxsning nomi | Egalik va qarindoshlik | Egalik hissasi | Faoliyatning asosiy turi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**MA'LUMOT**
**nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruvida _____________(to'liq ismi)**
**va/yoki uning yaqin qarindoshlarining ishtiroki to'g'risida**

| Nodavlat notijorat tashkilotining nomi | F.I.O va qarindoshlik darajasi | Majburiyati |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi tizimida
manfaatlar to’qnashuvini
boshqarish to’g’risidagi
nizomga
2-ilova

**Lavozimga tayinlanganda yoki yillik deklaratsiyani o’zgartirish/tayinlash paytida manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi/yo’qligi to’g’risidagi arizaning**

**NAMUNAVIY SHAKLI**

| | |
|---|---|
| **F.I.O (to’liq)** | |
| **Nomzod tanlovdan o’tayotgan nomzodning moliya organi/hududiy bo’linmasi** | |
| **Tarkibiy bo’linma:** | |

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo’llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari;

**aloqador shaxslar -** xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo’lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

**manfaatlar to’qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik moliya organlari xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir ko’rsatayotgan yoxud taʼsir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan moliya organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - moliya organlari xodimi tomonidan o’z xizmat vazifalarini bajarish chog’ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo’lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir qilishi mumkin bo’lgan pul mablag’lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko’rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

| | |
|---|---|
| | |
| 1 | Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida ishlayotgan bo’lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo’linmasini ko’rsating ***(agar ular ishlamasa, “Yo’q” deb yozing)***. |
| | |
| 2 | Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslariningiz tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etsa (yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar |

| | |
|---|---|
| | bo'lsa), sizning egallab turgan lavozim manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi?<br>***(agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "Ishtirok etmaydi ", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda ''Olib kelmaydi " deb ko'rsating).*** |
| | |
| 3 | Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki unga aloqador shaxslaringiz nodavlat notijorat tashkilotini boshqarishda qatnashsa, sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi?<br>***(agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "Ishtirok etmaydi ", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi" deb ko'rsating).*** |
| | |
| 4 | Sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz davlat idoralarida va tashkilotlarda ishlaydimi? |
| | |
| 5 | Siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz moliya organlari va muassasalarida ishlashga shaxsiy qiziqishlar bildiradimi? Ha bo'lsa, batafsil yozing. |
| | |
| 6 | Agar manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsating. |
| | |
| 7 | Agar kerak bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsating. |
| | |

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

• Menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobni ostki qismiga chiziqcha chizing).

• Men ushbu arizada aks etgan ma'lumotlar to'liqligi va haqqoniyligiga hamda men ushbu ma'lumotlarni tegishli moliya organlari tomonidan tekshirishga rozilik bildiraman.

• O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har qanday arizani haqqoniyligiga ta'sir qiladigan yangi holatlar to'g'risida moliya organlariga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

| ______________________ | ______________ | __________ |
|---|---|---|
| (F.I.O) | (imzo) | (sana) |

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi tizimida
manfaatlar to’qnashuvini
boshqarish to’g’risidagi
nizomga
3-ilova

**Rotatsiya yoki tayinlash va yillik deklaratsiyaini to’ldirish vaqtida manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to’g’risidagi arizaning**

**NAMUNAVIY SHAKLI**

| | |
|---|---|
| **F.I.O (to’liq)** | |
| **Moliya organi yoki muassasasining nomi** | |
| **Tarkibiy bo’linma:** | |
| **Lavozimi:** | |
| **Bevosita rahbarning F.I.O va lavozimi:** | |

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo’llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari;

**aloqador shaxslar -** xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo’lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

**manfaatlar to’qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik moliya organlari xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta′sir ko’rsatayotgan yoxud ta′sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan moliya organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - moliya organlari xodimi tomonidan o’z xizmat vazifalarini bajarish chog’ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo’lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta′sir qilishi mumkin bo’lgan pul mablag’lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko’rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

| | |
|---|---|
| | |
| 1 | Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida ishlayotgan bo’lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo’linmasini ko’rsating ***(agar ular ishlamasa, “Yo’q” deb yozing)***. |

| | |
|---|---|
| | |
| 2 | Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslariningiz tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etsa (yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa), sizning egallab turgan lavozim manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi?<br>***(agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "Ishtirok etmaydi ", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda ''Olib kelmaydi " deb ko'rsating).*** |
| | |
| 3 | Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki unga aloqador shaxslaringiz nodavlat notijorat tashkilotini boshqarishda qatnashsa, sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi?<br>***(agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "Ishtirok etmaydi ", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi" deb ko'rsating).*** |
| | |
| 4 | Sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz davlat idoralarida va tashkilotlarda ishlaydimi? |
| | |
| 5 | Siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz moliya organlari va muassasalarida ishlashga shaxsiy qiziqishlar bildiradimi? Ha bo'lsa, batafsil yozing. |
| | |
| 6 | Agar manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsating. |
| | |
| 7 | Agar kerak bo'lsa, qo'shimcha maʹlumotlarni ko'rsating. |
| | |

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

• Menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobni ostki qismiga chiziqcha chizing).

• Men ushbu arizada aks etgan maʹlumotlar to'liqligi va haqqoniyligiga hamda men ushbu maʹlumotlarni tegishli moliya organlari tomonidan tekshirishga rozilik bildiraman.

• O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har qanday arizani haqqoniyligiga taʹsir qiladigan yangi holatlar to'g'risida moliya organlariga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

____________________ (F.I.O) ______________ (imzo) __________ (sana)

O’zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi tizimida
manfaatlar to’qnashuvini
boshqarish to’g’risidagi
nizomga
4-ilova

| № | Ma’lumot olingan sana | Manfaatlar to’qnashuvi mavjud bo’lgan xodimning F.I.O | Moliya organining (tarkibiy bo’linma) nomi/xodimning lavozimi | Manfaatlar to’qnashuvining predmeti | Manfaatlar to’qnashuvining turi (haqiqiy yoki potensial) | Manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish bo’yicha choralar | Odob-axloq komissiyasi yig’ilish bayonnomasining soni va sanasi | Belgilangan choraning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo’yicha ma’sul shaxs |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 1 | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | |
| … | | | | | | | | |

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
tizimida manfaatlar to’qnashuvini boshqarish
to’g’risidagi nizomga
5-ilova

____________________________ga
(bevosita rahbarning F.I.O to’liq)

_______________________________
____________________________dan
(F.I.O to’liq)

_______________________________
(lavozimi, tashkiloti)

_______________________________
(aloqa telefon raqami)

**XABARNOMA**
**manfaatlar to’qnashuvining kelib chiqishi ehtimoli haqida**

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 20___-yil “____”__________dagi “____”-son buyrug’iga asosan men, ____________________________________________
“____” ______________ dan (F.I.O lavozimi va vazifasi)
_______________________________________________________________________________
_____________________________________________ sizga manfaatlar to’qnashuvining kelib chiqish ehtimoli haqida quyidagilarni xabar qilaman:________________________
_______________________________________________________________________________

(Shaxsiy manfaatlar (to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita) xizmat vazifalarini bajarishiga ta′sir qilishi yoki ta′sir qilishi mumkin bo’lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan moliya organlarining davlat manfaatlariga zid kelishi mumkin bo’lgan vaziyatni tasvirlaydi).

| | | |
|---|---|---|
| ________________________ | _______________ | ___________ |
| (F.I.O) | (imzo) | (sana) |

**Xodimning bevosita raxbari tomonidan to’ldiriladi**

Manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish uchun quyidagi hal qilish choralari ko’rildi:

_______________________________________________________________________________
__________________ (manfaatlar to’qnashuvini tartibga solish uchun ko’rilgan choralar ko’rsatiladi)

| | | |
|---|---|---|
| ________________________ | _______________ | ___________ |
| (rahbarning F.I.O) | (imzo) | (sana) |

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
tizimida manfaatlar to’qnashuvini boshqarish
to’g’risidagi nizomga
6-ilova

**Moliya organlarida manfaatlar to’qnashuvini oldini olish bo’yicha TADBIRLAR**

| Vaziyat | Davriyligi | Amalga oshiriladigan tadbirlar |
|---|---|---|
| Ishga qabul qilish/rotatsiya/lavozimi o’zgarishi | Bir vaqtning o’zida | Yaqin qarindoshlar va / yoki aloqador shaxslar bilan bir-birlariga to’g’ridan- to’g’ri buysunuvda ishlashiga yo’l qo’yilmasligini taʼminlash. |
| | | Har bir xodimni mazkur Nizom bilan imzo qo’ydirgan holda tanishtirish. |
| | | Manfaatlar to’qnashuvi mavjud bo’lgan shaxsni tanlov/attestatsiya komissiyasi tarkibidan chiqarish choralarini ko’rish. |
| Xarid qilish shartnomalarini tuzish | Bir vaqtning o’zida | Kontragentlardan taʼsischilar, mulkdorlar, rahbarlari va yakuniy benifitsiarlar to’g’risida maʼlumotlarni so’rab olish. |
| Davlat organlari va tashkilotlarining tekshiruvlari mavjud xodimlarni chiqarib tashlash. | Bir vaqtning o’zida | Ishchi guruh tarkibidan tekshirilayotgan organlar va tashkilotlarida ishlayotgan yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari mavjud xodimlarni chiqarib tashlash |
| Xodimlar tomonidan manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida arizalarni to’ldirish | Har yili | Xodimlarning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to’g’risidagi maʼlumotlarni aniqlash. |
| Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha o’quvlarni o’tkazish | O’quv rejasiga muvofiq | Potentsial va haqiqiy manfaatlar to’qnashuvi holatlarini, ular to’g’risida xabardor qilish tartibi va ularni tartibga solish to’g’risida. |
| Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha maslahatlar | Amaliy | Xodimlarning manfaatlariga zid bo’lgan nizolarni boshqarish bo’yicha maslahatlarni Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo’limi, axloq komissiyasi yoki mavjud aloqa kanallari orqali olishlarini taʼminlash. |
| Aloqa kanallariga | Doimiy | Moliya organlari xodimlari uchun |

| | | |
|---|---|---|
| murojaatlarni qabul qilish | | manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi xabarlarni o’z vaqtida va to’g’ri qabul qilinishini, ro’yxatdan o’tkazilishini va qayta ishlashini doimiy ravishda ta'minlash |
| Aloqa kanallariga murojaatlarni kabul qilish | Doimiy | Moliya organlari xodimlari uchun manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi xabarlarni o’z vaqtida va to’g’ri qabul qilinishini, ro’yxatdan o’tkazilishini va qayta ishlashini doimiy ravishda ta'minlash. |
| Xodimning manfaatlar to’qnashuvi yuzaga kelishi fakti bo’yicha oshkora qilishi | Oshkor etilgan taqdirda | Bevosita rahbar tomonidan tezkor va samarali hal qilish choralarini ko’rish xamda uning ustidan axloqiy komissiya tomonidan nazorat olib borilishini ta'minlash. |